

TILSHUNOSLIKDA DIALEKTOLOGIYA: MINTAQAVIY FARQLAR VA O'ZIGA XOSLIKLAR

*Andijon Davlat Chet Tillari Instituti
Musojonova Ominaxon Xusanboy qizi
1-kurs 101-guruh talabasi
Xomidova Malohat Oktyabrjon qizi*

Anotatsiya: Mazkur maqolada dialektologiya fanining kelib chiqishi, rivojlanishi, asosiy yo'nalishlari, mintaqaviy lahjalar va ularning tildagi o'ziga xos ifodalananish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, turli hududlardagi lahjalarning o'ziga xos tomonlarini o'rganadi, dialektologiyaning zamonaviy yo'nalishlari va uslublari bilan ham tanishtiradi.

Kalit so'zlar: dialektologiya, sheva, lahja, grammatika, GIS, leksik, dialektal.

Abstract: This article analyzes the origin, development, main directions of the science of dialectology, regional dialects and their unique ways of expression in the language. It also studies the specific aspects of the dialects of different regions, introduces modern directions and methods of dialectology.

Keywords: dialectology, dialect, dialect, grammar, GIS, lexicon, dialectal.

Аннотация: В данной статье анализируются возникновение, развитие, основные направления науки диалектологии, региональные диалекты и их уникальные способы выражения в языке. Также изучаются особенности диалектов разных регионов, знакомятся со временными направлениями и методами диалектологии.

Ключевые слова: диалектология, диалект, грамматика, ГИС, лексикон, диалектал.

Ma'lumki, dialektologiya bu tilshunoslik fanining bir sohasi bo'lib, turli mintaqalarda tilning qanday o'zgarishi ya'ni shevalar va lahjalarni o'rganadi. Ma'lum hududlarda bitta til qabul qilinganiga qaramay, insonlar uni o'zlariga osonlashtirib, moslashtirib olishgan va tarixdan, ota-bobolaridan meros bo'lib qolgan. Tilning shevalari, lahjalari orasidagi farqlar talaffuzi, so'z boyligi, grammatik tuzilishi kabi jihatlarda namoyon bo'ladi.

Dialektologiya grekcha "dialektos" so'zidan olingan bo'lib, biror tilning mavjud sheva va lahjalarini va ularni adabiy tildan farqini o'rganadi. Dialekt-sheva, logos-ta'limot, ya'ni sheva haqida ta'limot demakdir. Sheva atamasi haqida o'rganadigan bo'lsak, u forscha so'z, ovoz, til, so'zlashish, odat, yo'sin, ravish kabi

ma'nolarini ifodalab, har bir tilning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini o'z ichiga olgan eng kichik qismidir. Lahja esa arabcha so'z bo'lib, shunday xususiyatlarni o'zida mujassam etgan shevalar yig'indisidir. Kitoblarda yozilishicha, dialektologiya makonni o'rganish nuqtayi nazaridan ikki xil bo'ladi: 1) Tasviriy dialektologiya yoki dialektologiya; 2) Tarixiy dialektologiya. Tasviriy dialektologiya- har bir hudud, viloyat, qishloq kabi joylarning mahalliy fonetik va leksik, morfologik xususiyatlarini o'rganadi, yozib oladi va uni muhrlab, kartaga tushiradi. Tarixiy dialektologiya esa shu tilning sheva va lahjalarining kelib chiqishi, boshlanish nuqtasi, rivojlanishi, qaysi davrlarda qanday o'rganganligi, qardosh tillar bilan munosabati va bu tilning shevalarida boshqa qardosh tillarning ishtiroki kabi tomonlarini o'rganib chiqadi va bu faqatgina til tarixi uchun emas balki xalq tarixi uchun ham muhim, boy va qimmatli materiallar beradi.

Dialektologiya alohida fan sifatida XIX asr oxirlarida rivojlana boshladi. Bu davrda tilshunoslar asosan tarixiy va solishtirish metodlari yordamida dialektlarni o'rganishga e'tibor qaratdilar. Ayniqsa, Germaniya, Angliya, Fransiya kabi davlatlarda olimlar dialektologiya bo'yicha dastlabki izlanishlarini olib borishdi. Bu davrda ko'pincha xalq o'g'izaki ijodidagi til va mahalliy shevalar tahlil qilindi. XX asr boshlarida dialektologiya tilni empirik o'rganish metodlarini qo'llab ya'ni nazariy fikrlar yoki taxminlarga emas, balki to'g'ridan-to'g'ri kuzatuvlar, tajribalar va amaliy ma'lumotlarga asoslangan holda o'rganishgan. Masalan dialektologlar dialektlar va lahjalarni bevosita mahalliy aholining nutqidan namunalar yig'ish, intervyu olish, ko'proq muloqotda bo'lish orqali amalga oshirishgan. Bu usul tilshunoslarga dialektologiya haqida aniq va ishonchli ma'lumotlar olishga, shevalar va lahjalarning har bir hududlarda bir-biridan farqini to'laqonli sezishga juda katta yordam bergan. Bunday ishlardan so'ng, til atlaslari loyihalari bu davrda rivojlanib, tilning mintaqaviy farqlarini xaritalarda tasvirlashga katta e'tibor qaratildi. Masalan Fransiyaning Atlas Linguistique de la France (Fransiya til atlaslari) va Germaniyaning Sprachatlas loyihalari dialektologiyaga katta hissa qo'shgan. Shuningdek bu davrda yana tilning strukturaviy va funksional jihatlari, dialektlardagi o'zgarishlarning sabablari va ular qanday kontekstlarda, holatlarda ishlatilishi tahlil qilindi.

Tilshunoslar o'zgarishlar sababi sifatida ijtimoiy omillar, iqtisodiy omillar, va til tizimidagi ichki o'zgarishlarni ko'rib chiqishdi.

Hozirgi kunda zamon rivojlangani sari har bir sohani o'rganish osonlashib bormoqda. Dialektologiya sohasida ham zamonaviy texnologiyalar, kompyuter dasturlari, ma'lumotlar bazalari va GIS (Geographic Information Systems) texnologiyalari orqali dialektlar to'g'risida aniqroq ma'lumotlar yig'ish va ularni keng ommaga yetkazish imkoni paydo bo'ldi.

Shuningdek, dialektal tadqiqotlarda katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va tahlil qilish uchun raqamli ma'lumotlar bazalari yaratilmoqda. Ushbu bazalar

диалектал lug‘atlar, fonetik yozuvlar va grammatik ma’lumotlarni saqlashga ko‘mak beradi. So‘nggi yillarda onlayn so‘rovnomalar va ijtimoiy tarmoqlardagi tadqiqotlar juda ko‘paydi va bu turli hududlarda yashovchi odamlarning yozish uslublari, talaffuzlari va leksik xususiyatlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Hamma davlatlarda rivojlanayotgan paytda o‘zbek tilida ham dialektologiya tadqiqotlari olib borilgan va borilmoqda. Bu o‘zbek tilining mintaqaviy shevalarini o‘rganishga, ularning xususiyatlari va o‘ziga xosliklarini tahlil qilishga qaratilgan. O‘zbek tilshunosligida dialektologiya ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq qilinib, o‘zbek tilining boy va xilma-xil shevalari haqida muhim ilmiy ma’lumotlar to‘plangan. O‘zbek tilida asosan shimoliy, janubiy va o‘rta mintaqalarga xos bo‘lgan uchta katta sheva guruhlar mavjud. Shimoliy sheva Toshkent, Farg‘ona vodiysi va

Sirdaryo viloyatida, janubiy sheva Qashqadaryo va Surxondaryo hududida, o‘rta sheva esa Samarqand, Buxoro, Navoiy va Jizzax hududlarida keng tarqalgan. Har bir shevaning o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari mavjud bo‘lib, bu xususiyatlar o‘zbek tilining xilma-xilligini namoyon qiladi. Turli hudud, joylardagi dialekt va shevalarni o‘rganish xalq tarixi uchun ham, til tarixi uchun ham juda muhim. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bo‘lmagan ba’zi so‘zlar yoki o‘z shaklini yo‘qotgan, o‘zgartirgan grammatik jihatlari hozirgi eski o‘zbek shevalarida saqlanib qolgan bo‘lishi mumkin. Masalan, eski o‘zbek tilida foydalanilgan yitmoq fe’li o‘rniga hozirda adabiy tilda yo‘qolmoq fe’li ishlatiladi. Lekin hozirgi ba’zi hududlardagi shevalarda bu fe’lning yitmoq shaklini uchratish mumkin (o‘lim-yitim bo‘lmasin.

Tosh.shevasidan). Shuningdek, eski o‘zbek tilidagi sifatdoshning -g‘an shaklini hozir ham qipchoq shevalarida uchratish mumkin (borg‘an, qolg‘an).

Dialektologiya tilning mintaqaviy xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan fan bo‘lib, u tilning tarmoqlanishi, o‘ziga xos jihatlari va nutqiy madaniyatni yoritadi. Lahjalarning kelib chiqishi, rivojlanishi va hududiy o‘zgarishlari tilni yanada boyitadi hamda mintaqaviy madaniyat va identifikatsiyani saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, dialektologiyaning yutuqlari milliy tilning to‘laqonli rivojlanishiga hissa qo‘shib, madaniy merosni asrab-avaylashda alohida o‘rin tutadi.